

2  
Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

2013-yil

15-aprel

\* N:15

(66920)



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



## JAHON CHEMPTIONATI YAKUNLANDI

O'tgan hafta poytaxtimiz Toshkent shahri nufuzli musobaqa – o'smirlar va qizlar o'rtaida og'ir atletika bo'yicha IV jahon championatiga mezbonlik qilganidan xabaringiz bor, albatta. Mazkur dunyo birinchiligidagi 70 mamlakatdan qariyb 500 nafar yosh og'ir atletikachilar g'oliblik uchun bahs olib borishdi.



Davomi 7-betda  
BILIMLAR  
BELLASHUVIDA  
BELLASHING

Bilimlar bellashuvining,  
uchinchisi – viloyat bosqichi  
yakunlandi. Endi navbat  
Respublika bosqichiga.

2-bet

## MAQSADGA AYLANGAN HAVAS

Sardorbek Tursunov bolaligidan musiqaga o'zgacha mehr  
qo'ydi. U oynayi jahon orqali beriladigan musiqiy  
ko'rsatuvlarni berilib tomosha qilar, radiodan yangraydigan  
tarona-yu qo'shiqlarni maroq bilan tinglardi.

# BILIMLAR BELLASHUVIDA BELLASHING

— Joriy o'quv yilida bilimlar bellashuvlarini o'tkazish tartibi takomillashtirilib, bellashuv o'tkaziladigan fanlar soni 10 tadan 16 taga oshirildi, jumladan, nemis, fransuz tillari, huquq va iqtisod fanlari qo'shildi, — deydi Xalq ta'lumi vazirligi Axborot xizmati mutaxassisasi Bahriddin Shayvaliyev. — Shuningdek, bilimlar bella-shuvida o'tkaziladigan nazorat turlari ham ko'paytirildi. Asosiy e'tibor o'quchilarning olgan nazari bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlariga qaratilib, test bilan birgalikda yozma ish, laboratoriya mashg'ulotlari, xorijiy tillar bo'yicha yozma va og'zaki muloqot

ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan nazorat turlari kiritildi.

Bilimlar bellashuvining birinchi — mak-



## MAQSADGA AYLANGAN HAVAS

(Boshi 1-betda)

Farzandidagi musiqaga bo'lgan havasni vaqtida ilg'agan ota-onasi uni Glier nomidagi Respublika ichtisoslashirilgan musiqa maktabiga olib borishdi. Ustozlar uning fe'l-atvori hamda qo'l barmoqlarining tuzilishiga qarab skripka chalishni maslahat berishdi.

Ustozlar o'gitini olib, o'z ustida tinimsiz ishlagan yosh musiqachi yurtimizda hamda xalqaro miqyosda o'tkazilgan tanlovlarda muyaffaqiyatga erisha boshladi. Sardorbek ilk bor 2004-yilda Toshkent viloyati o'tkazilgan festivalda 1-o'rinni egallab, «Oltin skripka» mukofoti bilan taqdirlandi. 2005-yilda Fransiya poytaxti Parij shahrida bo'lib o'tgan Aleksandr Glazunov nomli xalqaro skripkachilar tanlovida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritib, ustozlari ishonchim oqladi. 2008-yilda esa Italiyadagi xalqaro skripkachilar tanlovida 4-o'ringa loyiq topilgan bo'lsa, Gretsyaning Santarine orolida 2009-yilda o'tkazilgan Xalqaro festivalda faxrli 1-o'rin sohibi bo'ldi.

Uning kelajakdagi orzusi yosh avlodga musiqa sirlarini o'rgatish va muvaffaqiyatga erishishlariga o'z hissasini qo'shishdan iborat. Bu yo'lda unga omad tilaymiz.

Charos TO'XTASHEVA,  
Toshkent madaniyat kollejining  
3-bosqich o'quchisi

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilib, maktablarda sog'lom raqobatni tashkil etish orqali o'quchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish, ularning qobiliyat va iqtidortlarini quyi sinflardan boshlab aniqlash, Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarning bajarilish holatini tahlil qilish hamda respublikadagi 194 ta tuman (shahar) larning reytingini aniqlash maqsadida to'rt bosqichli bilimlar bellashuvi o'tkazib kelinmoqda.

saralandi. Unga ko'ra, bellashuvning viloyat bosqichida, asosan, Toshkent shahri, Navoiy, Buxo-

viloyati, Bo'stonliq tumanidagi Chimyon qo'rg'onida joylashgan «Quyoshli» oromgohida tashkil etiladigan «Yozgi intellektual rivojlantirish oromgohi»ga

yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

Oromgoҳda mamlakatimizning yetakchi professor-o'qituvchilar, olimlari mahorat darslari o'tkazishadi. Bundan maqsad, avvalo, maktab va olyi ta'lim hamkor-

ligini yo'lga qo'yish, qolaversa, «Ustozshogird» an'anasi davom ettirishdir. Shuningdek, oromgohda tanqli ijodkorlar, shoirlar, madaniyat va san'at xodimlari bilan uchrashuvlar, mushoiralar o'tkazishi realjashtirilgan.

Feruza SOYIBJON qizi

## PARVOZGA SHAY

Bolajonlar, orangizda musaffo osmonni to'Idirib, guldiratib uchayotgan samolyot uchuvchilari, samodagi Oyni quchgan raketa fazogirlariga havas qilmagan o'quchi bo'limasa kerak. Zero, inson hamisha ko'kka intilib yashagan.

Bundan roppa-rosa 52 yil avval – 1961-yil 12-aprelda ilk marta Yuriy Gagarin fazoga chiqib, 106 daqiqa parvoz qilgani haqidagi ma'lumotga ega-siz. Shu munosabat bilan bu kun Xalqaro fazogirlar kuni deb e'lon qilindi.

## RAKETAM

Kuni kecha ana shu sanaga bag'ishlab O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lumi Vazirligi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hamda «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi hamkorligida «Kosmik maketlashtirish va modellashtirish» bo'yicha umumta'lum maktablar o'rtasida «Umid nihollari» Respublika ochiq championati va ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Unda ishtirokchilar 8 ta yo'nalish bo'yicha o'zaro bellashdilar. O'z mahoratlarini sinab ko'rish maqsadida tanlovgaga kelgan turli viloyatlardagi «Barkamol avlod» markazlarining «Aviamodel» hamda «Yosh texniklar» to'garagi a'zolarini suhbatga tortdi:

Abdullo IKROMOV, poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 83-maktabning 4-sinf o'quchisi:

— Men bu tanlovgaga tasma yordamida qo'nuvchi raketa modelimni olib keldim.

ro, Xorazm viloyatlari o'quchilarini peshqadqil qilishdi. G'oliblikni qo'lga kiritgan 522 nafar o'quchi bellashuvning respublika bosqichida ishtirok etish uchun hozirlik ko'rishmoqda. Shuningdek, Toshkent

Raketam eng balanda uchishiga ishonaman.

— Men musobaqa Jizzax

viloyatining Zomin tumanidan keldim, — deydi 31-maktabning 8-sinf o'quchisi Shahzod RUSTAMBEKOV. — «Yosh texniklar» to'garagiga qatnashayotganimga 4 yil bo'ldi. To'garak rahbarimiz Ilhom aka Muhammadiyev boschiligidagi parashutli raketa modelini yasadik.

— Men Surxondaryo viloyatining Angor tumanidagi 29-maktabda o'qiman, — deydi Husniddin BO'RIYEV. — To'garagimiz a'zolari bilan birgalikda Yuriy Gagarin parvoz qilgan «Vostok» raketa modelini yasab keldik. Poytaxtga kelib, talaygina do'stlar ham orttirdik.

Tanlovdagi g'olib bo'lgan o'quchilar tanlov tashkilotchilarining qimmat-baho sovg'alari bilan taqdirlanildilar.

Ozoda TURSUNBOYEVA.  
ZUHRA o'lgan suratlari



# MEHR - ENG ZO'R SHIFO

Darsga qo'ng'iroq chalindi-yu, bolalarning shovqin-suroni tindi. Maktab hovlisi suv quygandek jum-jit bo'lib qoldi. 5-«A» sinf o'quvchilar ham biologiya fani xonasida kitob-daftarlarini hozirlab, sinf rahbarlarini kutib o'tirishardi. Xonaga kirgan o'qituvchi darsini odatdagidek yo'qlamadan boshladi:

– Xo'sh, bugun darsimizda kim yo'q?  
– Nazarova Gulbahor yo'q, ustozi, – javob berdi navbatchi o'quvchi.

– Bu qizimiz anchadan buyon maktabga kelmayapti, tinchlikmikan, xabar oldingizmi? – so'radi ustozi sinf sardoriga yuzlanib.

– Yo'q, Nargiza opa, borolmadik. Uning eng yaqin dugonasi Sevaranining atyishicha, Gulbahor o'g'ir kasallikka chalingan emish, shunga...

– O'zi ham har gal jismoniy tarbiya darsidan so'ng terlab turib jo'mrakdan muzdekk suv ichardi-da, ustozi. Mana, o'pkasi kasal bo'lib qolibdi, – qo'shimcha qildi Zilola...

Nargiza opa shu kuniyoq darsdan so'ng Gulbahorlarniga otlandi. Bir gapirib o'n kuladigan sho'x qizaloqning ancha o'zini oldirib, ranglari siniqib, shashti pasayib qolganini ko'rib, juda xafa bo'ldi. Lekin sir boy bermadi. «Ko'rining ancha yaxshi, shifokorlarning tavsiyalariga to'la amal qilsang, tezda tuzalib ketasan», deya Gulbahor-

ning ham, qayg'uga botgan onaizorining ham kayfiyatini ko'tardi. Barcha sinfdoshlari nomidom salom aytdi...

Ertasi kuni ustozi sinfi bilan tarbiyaviy soat o'tkazdi. O'quvchilarining o'zlash-tirishlari, tartib-intiziq, qo'lga kiritayotgan yutuqlari, kamchiliklari xususida so'zldi. Ozodalikka, shaxsiy gigiyenaga rioya qilishning juda muhimligini, bunday qoidalarga amal qilinmasa, turli xastaliklar kelib chiqishi mumkinligini alohida uqtirdi. Suhbat mavzusi o'z-o'zidan Gulbahor chalingan xastalikka borib taqaldi. Ustozi sil kasalligining o'quvchilar o'ylagandek bedavo emasligini, xastalik alomatlari namoyon bo'lishi bilan shifokorga uchrab, uning ko'rsatmalariga to'la amal qilinsa, bu darddan butunlay forig' bo'lish mumkinligini tushuntirdi. Atrofdagilardan uyalib, kasallikni yashirishga urinishning yomon oqibatlarga olib kelishimi ham ta'kidladi. Shuningdek, xonalar havosini tez-tez almashtirib turish, uy jihozlarini vaqtqi-vaqt bilan nam dokoda artib tozalash kasallikning oldini olishini tushuntirdi.

Gulbahorning tez orada sog'ayib, sinfdoshlari safiga qaytishimi niyat qildi.

Shifokorlarning mehri, samarali muolajalari, yaqinlarining qalb qo'ri, qolaversa, ustozi, sinfdoshlarining e'tibori dan ruhlangan Gulbahor dardiga shifo topib, avvalgidek sog'iom, quvnoq qizaloqqa aylandi...

Biz bu voqeani bejiz keltirmadik. Kuni kecha poytaxtimizdagi «Dedeman» mehmonxonasiida 24-mart – Butunjahon silga qarshi kurash kuni munosabati bilan USAID, OITS va Sil bo'yicha dialog loyihasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, AQSHning USAID tashkiloti,

Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi va yana bir qancha tegishli tashkilotlar ishtirokida: «Men hayotman, silni to'xtating!» shiori ostida o'tgan anjumanda qatnashib, ustozning fikrlari nechog'li to'g'ri, asosli ekanligiga amin bo'ldi. Shuningdek, ko'plab xorijiy davlatlarga qiyosan yurtimizda kam bo'lsa-da, uchrab turadigan bu xastalikka qarshi kurash borasida hukumatimiz tomonidan samarali, ibratli ishlar amalga oshirilayotgani haqidagi ma'ruzalarini tinglab, ko'nglimiz yanada taskin topdi. Anjumandagi ishtirokimiz tufayli tibbiy savodxonligimiz oshdi, eng muhimi, bu kasallikning nasldan nasla o'tmasligini, ko'pchilik o'ylagandek, bedavo emasligini, tibbiyotda samarali davolash usullari keng qo'llanilayotganini bilib oldik. Anjumanda 2015-yilga qadar ushu borasida qarshi kurash vositalarini jahon

talablarini darajasiga yetkazish borasida olib borilayotgan samarali ishlar xususida ham so'z bordi.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarдан ko'nglimiz to'ldi. Taasurotarimizni o'tqoqlashishdan ko'zlagan asosiy maqsadimiz, Siz-u bizning beba boyligimiz – salomatligimiz ishonchli qo'llarda ekanligini yana bir bor eslatib o'tishdan iborat. Siz aziz o'g'il-qizlardan talab qilinadigan esa ozodalikka, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, o'z vaqtida tartibli ovqatlanish, sport bilan muntazam shug'ullanishdan iborat.

*Yusuf ABDULLAYEV*

## XATLARINGIZNI O'QIDIK

*Bolajonlar, tahririyatimizga sizlardan har kuni juda ko'p maktublar keladi. Ularning hech birini nazardan chetda qoldirmay, birma-bir tanishib borishga harakat gilamiz. Yurtimizning turli go'shalarida istiqomat qilayotgan tengdoshlarining ijod namunalari, ularning fikr muloqazalari bizni behad quvontiradi.*

tanlashga alohida e'tibor qaratishini so'raymiz. Urganch shahridagi 5-maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi Madina IBODULLAYEVA ham shunday maslahat bergan bo'lardik.

Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 34-maktabning 5-«B» sinfida tahsil olayotgan Madina Bozorova, Asliddin Qurbonov, Islom Turdiqulov, So'g'diyona Erkinova singari faol o'quvchilar bo'sh vaqtlarida «Yosh qalamashlar» to'garagiga qatnashayotgani, gazeta-mizga 2013-yil uchun sinfi bilan obuna bo'lishgani haqida yozishibdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumanidagi Bo'ston akademik litseyi o'quvchisi Sababot SA'DULAYEVA ya Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 46-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Oliya YUSUPOVA o'z maktublarida bugungi kunda

yurtimizda yosh avlod uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlarga javoban har bir o'quvchi puxta bilim olib, xalqimizga munosib farzand bo'lishi lozimligi haqida to'qinilanib yozishibdi.


Shuningdek, tahririyatimizga Jizzax viloyoti, Jizzax shahridagi 25-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi Dilnoza ILHOMOVA, G'allaorol tumanidan Shahnozabonu BOTIROVA, shu tumandagi 7-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi Shahnoza MAMASOLIYEVA, Buxoro viloyati,

Shofirkon tumanidagi 20-maktabning 5-«B» sinf o'quvchisi Dildora ABDULLAYEVA, shu maktabning 7-«A» sinf o'quvchilari Ozoda FAYZULLAYEVA, Feruza ABDULLAYEVA, Shanoza BAHROMOVA, 5-«B» sinf o'quvchisi Dildora ABDULLAYEVA, G'ijduvon tumanidagi 51-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi Hilola OTAYEVA, Navoiy viloyati, Uchquduq tumanidan Laylo ABDULLAYEVA, Farg'onaviyoti, Furqa tumanidagi 36-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Muxlisa IBROHIMOVA, Toshkent shahri, Sergeli tumanidagi 6-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi Umida TO'LBOYEVA singari muxlislarimizdan ham mazmunli xat oldik.

E'tiboringiz uchun rahmat! Maktab hayoti, qiziqish va intilishlaringiz haqidagi maktublariningizni kutib qolamiz.

Maktublarni saralar ekanmiz, turli-tuman qarashlar, fikrlarga duch kelamiz. Ulardagi har bir satrillarda sizlarning «Xatim chop etilarmikin?» degan hadik turishi, tabiiy. Siz hech ikkilamay tahririyatimizga xat yo'llang. Biz ularni bo'limlarga tarqatib, ijod namunalaringizni, albatta, chop etishga harakat qilamiz.

*Xatlar bo'limi*




# ENG YAXSHI SINF RAHBARI

Ustoz haqida so'z



MUBANDULLAYEVA o'g'li

**Sinf rahbari!**  
U onangiz kabi sizning yutug'-u tashvishlaringizga sherik bo'lguchi, bilim berib, hayotni o'rgatuvchi mehribon inson. Sizning yutuqlaringiz rahbaringizning maktabdag'i hurmatini ta'minlasa, o'rinsiz sho'xliklar-u o'zlashtirishingizning pasayishi uning obro'sini tushiradi. Bugun ushbu mavzuda so'z yuritishimza Shayxontohur tumanidagi 34-maktabning 8-sinf o'quvchilari sababchi bo'lindi. Tengdoshlarining o'z sindi rahbarlari. Surayyo opa Saidvaliyeva ni juda hurmat qilishlarini aytishdi.



Lekin, yaqinda ushbu sinfning ba'zi o'quvchilar sho'xlik qilib, ustozlarini ranjitiq qo'yishibdi. Sinfning eng namunali o'quvchilaridan biri Robiya Xayrullayevanining aytishicha, aslida sindoshlar ko'pgina yutuqlarni qo'lg'a kiritib kelayotgani uchun namunali sind hisoblanishar ekan. Surayyo opaning jonkuyarligini, o'quvchilarni joiz bo'lsa, o'z hisobidan rag'batlanrib borishi kabi fazilitarini qadrlashish ekan. Bu sind o'quvchilar endi hech qachon hech bir ustozni ranjitmey, a'lo o'qishlari, namunali xulqlari bilan rahbarlarini eng yaxshi sindi rahbar nomiga sazovor etishga ahslashib olishibdi. Yaqindagina Olmazor tumanidagi 326-maktabning biologiya fani o'quvchisi Gavharoy Umrizoqova «Yilning eng yaxshi sindi rahbari» tanlovida g'olib topilganini o'qib, havas qilishgan ekan-da!

Toshkent shahar Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan har tomonloma yetuk o'quvchilarni tarbiyalashda sindi rahbarlarining mas'uliyatini oshirish, ularning tajribasini ommalashtirish

maqsadida tashkil etilgan mazkur tanlova o'qituvchilar to'rtta shart bo'yicha musobaqaqlashishdi. Ular o'quvchilari bilan olib borgan ishlari, tarbiya ja ra yo ni takomillashtirishga oid yaratgan konsepsiylari haqida to'xtalib, namunaviy tarbiyaviy soat o'tkazish hamda muammoli vaziyatni hal etish bo'yicha o'z mahoratalarini namoyish etishdi. Gavharoy opa Umrizoqovaning «Kasbim-faxrim» mavzusidagi noan'anaviy tarbiyaviy soatiga ijodkor, psixolog, shifokor va mahalla faollarini jalg'etgani yugori baholandi.

Aziz o'quvchilar, bu kabi barcha sa'y-harakatlar Sizlarning yaxshi bilim olib, komil inson bo'lisingiz uchun qilinayotgan ekan, siz ham ustozlaringiz nomini ulug'lang, ularga rahmatlar keltiring! Sizga oddiy tuyulgan ayrim sho'xliklarining ham ularga behurmatlik belgisi bo'lib qolishi mumkinligiga yana bir misol keltiray:

Xizmat yuzasidan maktabga bir o'qituvchini so'roqlab borganimda, dars payti ekan. Sinf eshigini taqillatib, ustozdan urz so'radim. O'quvchilarga vazifa topshirib, men bilan suhbatlashayotgan ustoz xonada birdan to'polon, shovqin boshlanganidan juda xijolat bo'ldi...

Ko'rdingizmi, aziz ustozlarni ba'zan uyatga qo'yib, behurmat qilishimizni o'zimiz ham bilmay qolamiz. Ular aslida cheksiz hurmat-ehtiromga munosib zotlar ekanligini unutmang, aziz o'quvchim!

Sayyora QODIROVA

O'zbekiston Tasviriy san'at galereyasi qoshida tashkil etilgan bolalar studiyasi, mana to'qqiz yildirki, faoliyat yuritib kelmoqda. Studiya tasviriy san'atga ixlosmand 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb etilgan bo'lib, asosiy maqsad ularni tevarak-atrofimizni o'rabb turgan olamning go'zalligi va



## MUVAFFAQIYATLAR GAROVI

uyg'unligini ko'ra bilishga o'rgatish, ularning estetik didini shakllantirishdan iborat. Studiya 2011-yildan «Ulkan muvaffaqiyatlar boshi» deya nomlandi. U o'z dasturiga ega bo'lib, unga ko'ra bolalar yoshiga ko'ra 3 guruhga bo'linishgan: 6-8 yoshdagi bolardan iborat 1-guruh haftanigan har shanbasida, 9-11 yoshilardan iborat 2-guruh va 12-16 yoshdagi bolardan tashkil topgan 3-guruh haftasiga 1,5 soatdan 2 marta masgh'ulot o'tishlari regionalistirilgan.

Studiya a'zolari o'tgan yili Qozog'istonning Olmaota shahrida o'tkazilgan «Olam bolalar nighida» rasmlar ko'rgazmasida muvaffaqiyatlari qatnashib,

tadbir tashkilotchilarining qimmatbaho sovg'alari va Diplom bilan taqdirlandilar. Studiya a'zolari, shuningdek, «Sog'lom yoshilar loyihasi doirasida «Biz sog'lom turmush tarzi uchun» deb nomlangan ijodiy tanlovlarda ham qatnashishdi. Laylo Rixsiveya, Jasur Hakimov, Sardor Sodiqov, Nigora Sodiqova kabi qatnashchilar sertifikat va sovg'alar bilan taqdirlanishdi.

Studiyaning mazkur yilda o'tkazgan ilk tadbiri «Yaponiya bolalar nighida» ko'rgazmasidir. Ko'rgazmada o'z ijdolari bilan muvaffaqiyatlari qatnashgan bolalar Diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Hasan ABDUNAZAROV

## SIZ nima DEYSIZ?

Qo'l telefon... Bu ixcham qurilma barchamizning eng yaqin dast-yorimizga aylangan, desam aslo mubolag'a bo'lmaydi. U aloqa vositasi sifatida og'irimizni engil qilsa-da, ayni paytda bu «mitti matoh» orqali butun dunyoning «issiq-sovug'i» dan xabardor bo'lismumkin.

Tunov kuni bir tengdoshimning uyali telefonini qo'limga tushib qoldi. Birovning buyumini titk lash odobsizlik sanalsa-da, qiziquvchanligim ustun kelib, telefon xotirasidagi ma'lumotlarni birma-bir ko'rib chiqqa boshladim. To'g'risini aytSAM, u yerdagani ma'lumotlarni dilim-

chingiz. Lekin internet orqali turmush tarzimizga, mentalite timizga, qadriyatlarimizga zid bo'lgan axborotlarning tarqalishi barchamizni jiddiy mushohada yuritishga chorlaydi. Tibbiyotda yurak xurujining oqibati fojia bilan tugaganidek, axborot xurujidan ham doim ehtiyyot bo'lmog'imiz zarur.

Ayni paytda bolalar maktabdag'i kompyuter darslari orqali bu yo'nali shinga doir ham analiy,

ham nazariy bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega. Ammo bugun ba'zi tengdoshlarimni nazariy bilimlar sira qiziq-tirmaydi. Ularga faqat jangarilik, zo'ravonlikni targ'ib etuvchi o'yinlar bo'lsa, bas. Sunday yosh-




larning o'y-xayoli darsda ham, uydya ham kompyuter o'yinlari bilan band bo'ladi. Qachon dars tugaydi? Qachon kompyuterdagi sevimli o'yinimni miriqib o'ynayman, degan savollar miyasida g'ujg'on o'ynaydi.

Men ham bilimga, yan-gilikka tashnaman. Lekin zamona navi texnika yutuqlaridan bilimimni mustahkamlash, boyitish, dunyoqarashimni kengaytirishdeq maqsadli foydalananishga intilaman va do'starimni ham shunga chaqiraman. Tengdoshlarim, ota-onalarimiz, ustozlarimizning bizga bildirgan ishonchlarini oqlab, kela-jakda yurtimiz ravnajiga o'z hissamizni qo'shish!

Laylo TURSUNOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Qamashi tumanidagi  
17-maktab o'quvchisi



S.FARMONOV chizgan surʼum



Bir manbada o'qiganim bor: ruhshunos-pedagoglarning fikricha, shaxsning shakllanishida u yashayotgan muhit qirq foiz, irlisyat o'n besh foiz, tarbiya qirq besh foiz ulushga ega bo'larkan. Bundan ko'rindiki, farzandlarimiz kamoloti, eng avvalo, oiladagi muhitga, ta'lim-tarbiyaga bog'liq ekan.

Muqaddas go'sha sanalmish oilalarimiz farzandlar kelajagiga tamal toshi qo'yiladigan ajib bir xilqatki, uning o'rnini hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Oila mas'uliyatini chuqur anglagan ota-onalar nafaqat o'zlarining, balki butun jamiyatning koriga yaraydigan farzandlar tarbiyalaydilar. Bunday oilalarga chin ma'noda havas qillib, ulardan o'rnak olishga intilamiz...

Anglaganingizdek, bugun ana shunday ibratlilik oilalardan biri haqida yozishga chog'landik.

# MEHNATDAN KELSA BOYLIK...

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi Oqtepa mahallasida istiqomat qilayotgan Zokirovlar xonardonida ikki o'g'il, bir qiz kamolga yetyapti. Ko'pchilik havasmandu oila boshlig'i Shokir aka taniqli musavvir. Bugungi kunda Respublika rassomlik kolleji o'quvchilariga saboq berish bilan birga, sermahsul ijod qilib kelayotgan ustozning qator yillarda Moskva, Anqara, Akyube shaharlarda shaxsiy ko'rgazmasi tashkil qilingan.

Oila bekasi Olimaxon opa ham Ali-sher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida samarali mehnat qilib, ko'pchilikni ma'naviyat ziyosidan bahramand qilgan.

Oila farzandlari Guli Ra'no, Mirkamol va Mirvosildagi musavvirlikka ishtiyoq dadalaridan o'tgan bo'lsa, kitobga, mutolaaga bo'lgan havasni Olimaxon opa uyg'otgan bo'lsalar, ajabmas!..

Opa-ukalar intilish va izlanish bobida bir-birlaridan qolishmaydilar. Suhbatlari mavzusi, asosan, tasviriy san'atga doir bo'lib, yangi g'oya, mavzu va uslubiy yo'nalishlar xususida uzoq-uzoq fikr-



lashishadi, bahslashishadi.

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn institutining «Dastgoh va kitob grafikasi» bo'limini muvaffaqiyatli tamomlab, bugungi kunda «Tafakkur qanoti» nomli nashriyotda mehnat qilib kelayotgan Guli Ra'no institutning «Markaziy ko'rgazmalar»

zalida hamda «Karvonsaroy»da bo'lib o'tgan «Grafiklar» ko'rgazmasida o'z ijod namunalari bilan qatnashishga ulgurdi. Shuningdek, kichkitoylarga atalgan quvnoq rasmlari respublika bolalar va o'smirlar nashrlari sahifalarida e'lon qilinayotgan she'r, hikoya va ertaklar mazmunini badiiy bezaklar bilan

to'ldirishga xizmat qilmoqda.

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn institutining «Teatr bezagi san'ati» bo'limida tahsil olayotgan Mirkamol ham o'z ustida tinimsiz ishlab, mahoratini oshirib boryapti. Oilaning kenjasি Mirvosil poytaxtdagi 157-maktabning 7-«B» sinfida tahsil oladi. Uning ham barcha tengdoshlari kabi qiziqishlari juda ko'p. Sportning suzish turi bilan shug'ulanishga, kitob o'qishga, til o'rganishga ishtiyogi baland. Lekin rasm chizishga bo'lgan havasi barchasidan ustunlik qiladi. Shayxontohur tumani «Barkamol avlod» markazi qoshidagi rassomchilik to'garagiga qatnab, ustozi Botir Faxriddinovdan bu nafis san'at turining sir-u sinoatlarini o'rganib kelyapti. Asosan, manzara janrida ishlaydigan Mirvosilning orzulari ulkan: mohir musavvir bo'lishni, manzarali rasmilar ko'rgazmasini tashkil qilishni niyat qiladi.

San'at va ijod insonsoing ma'naviy kamolotida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan quadrati vositadir. Shu boisdan bugungi kunda yurtimizda yoshlari-mizning iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Shuningdek, iqtidorli farzandlar ulg'ayayotgan ushbu oilada ham ularning kamoloti uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan.

*Mehnatdan kelsa boylik,*

*Turmush bo'lar chiroylik,*  
deganlaridek kasbi kori orqali turmushi obod, farovon bo'lishiga erishayotgan oila boshlig'i Shokir aka Zokirov farzandlarining ham ota kasbini davom ettirishga ahd qilganlardan behad mammun. Ulardan maslahatlarini aymaydi, talabchan ustozdek kamchiliklari ro'yrost aytadi, joiz bo'lsa, rag'batlantirib ham turadi. Aminmizki, bunday g'amxo'rlik va e'tibordan ruhlangan o'g'il-qizlar nafaqat oilasi, balki jamiyat ravnaqi yo'lda mehnat qiladilar, uning gullab-yashnashiga munosib hissa qo'shadilar.

Yurtimizda mana shunday ibratlilik, namunali oilalar ko'psaya, turmushimiz yanada obod, farovon bo'lib boraveradi.

Feruza JALILOVA

## ADIRDAGI MAKTABDA

Gazetamizni muntazam kuzatib borayotgan o'quvchilarning yaxshi bir an'anamizdan xabarlarini bor, albatta. Faol o'quvchilar, fidoyi ustozlarning sa'y-harakatlari bilan bilim maskanlarida «Tong yulduzi» kunlari o'tkazib kelinmoqda. Quvonarli, bu tadbirdargi jonli muloqotlar tufayli o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olmoqdalar. O'z navbatida, tahririyat xodimlari ham bolalar bildirgan takliflar, fikr-mulohazalar asosida gazeta sahifalarining rang-barangligi, mazmun-dorligini oshirishga intilmoqdalar.

Navbatdagi ijodiy uchrashuvimiz Toshkent viloyati,



Bo'stonliq tumanidagi purviqor tog'lar yonbag'rida joylashgan 12-umumta'l'm maktabida bo'lib o'tdi. Maktab o'quvchilar ushbu ilm maskanida saboq olgan taniqli yozuvchilar, yetuk olimlar bilan faxrlanib, ulardek bo'lishga intilishadi.

Mazkur maktabdagagi ijodiy uchrashuvimiz ham qiziqarli tarzda o'tdi. Tadbirda o'quvchilar Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Tursunboy Adash-boyev, Anvar Obidjon, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab kabi bolalar shoirlarining she'rlarini yoddan aytilib, ularning mazmun-mohiyati, g'oyasi borasida o'z fikrlarini bildirdilar. O'zlarining she'riy mashqlaridan o'qib, yig'ilganlarni xushnud etdilar.

Beg'uborlar davrasidagi maroqli uchrashuvdan ko'nglimiz to'lib, bolalar yozgan dasta-dasta she'rlarni olib qaytdik.

*O'z muxbirlarimiz*

# ABDURASHID MUALLIM

63:

$x+7$

14

$\sqrt{12}$

5

yechimi menga nima beradi, deya o'ylab qolardim. Men m a t e m a t i k bo'lmayman, derdim. Ustozga esa bu gapni aytilib bo'lmasdi.

Navbatdagi darslardan birida ko'nglimagi bu gapni bir sho'xroq sinfdosh qizimiz aytilib goldi:

– Ustoz, bu murakkab misollar bizga hayotda kerak bo'ladimi? Arifmetik amallarni yaxshi bilamiz-ku, shuning o'zi yetmaydimi?! – deb so'radi u.

– To'g'ri, matematikaga qiziq-maganingiz uchun bu misollar sizga qiyin tuyulyapti, – dedi ustoz taxtadagi misollarga ishora qilib. – Aslida hayot bulardan ko'ra ancha murakkabroq. Bu misollarni osom yechsangiz, kelajakda hayotingizda uchraydigan ayrim muammolari yechishga ham qiyinmaysiz.

Ustozning gaplaridan ta'sirlangan haligi qiz matematikaga mehr qo'ydi. Men esa she'r o'qib yuraverdim. Stol ustida matematika kitobi, tizzamda adabiyot...

Oradan yillar o'tdi. She'r o'qish-u yodlash asnosida o'zim ham she'rler yoza boshladim. Ilk she'rimni maktabda o'tgan Yangi yil tadbirida o'qidim. Keyin adabiyot muallimimdan maqtov eshitish ilinjida

atrofga boqdim, yuragim dukurlab urardi. Ammo kutilmaganda oldimga Tursunov domla keldilar.

U kishi hayajondan titrayotgan qo'llarimni mahkam siqib: «Matematik misol yechadi, u oldin yechilgan misollarni qayta ishlaydi, shoir esa hech qachon birov yozgan she'mi qayta yozmaydi. Sen yaxshi she'r yozibsan, bu haqiqiy yutug'ing. Ijodni shunday davom ettinginki, matematiklar she'rlaring sanog'ida adashishsin», dedi. Men boshi osmonga yetgan bolakay – «shoir» uchun bu e'tirofdan ortiq baxt yo'q edi, o'shandi.

Oradan yana yillar o'tyapti. Abdurashid Tursunov hamon o'sha holat, o'sha kayfiyat, o'sha salobat bilan o'quvchilarga dars o'tmoqda. Ammo u partalarda endi men va sinfdosh qiz yo'q... Agar qaytib qolsam edi, eh, faqat matematika o'qirdim. Chunki olamning asosi raqamlarda, bizga yashirin sirlar yechimi o'sha qora doskada oppoq ilonday cho'zilgan uzundan uzun misollar qatiga berkingan ekan. She'riyat-chi, dersiz?! She'riyat uning egizi, yaqin qarindoshi. Chunki haqiqiy she'riyat kuchli mantiqni talab qilar, mantiqiy tafakkurni esa she'r tili bilan tushuntirish kerak ekan...

Ustozning shogirdlari orasidan bugun ko'plab olimlar, faylasuflar, tilshunos-u tarixchilar yetishib chiqdi. Darvoqe, ustozning to'rt nafar o'g'illari ham ota izidan bordilar. Ular bugun iqtisod sohasini puxta egallab, respublikamizning turli go'shalarida yurtimiz rivoji uchun sidqidildan xizmat qilmoqdalar.

Mening esa haliyam matematikani o'rgangim bor. Matematika-chi, endi u meni o'z dunyosiga olib kirarmikan? Hamma gap ana shunda...

Alimurod TOJIYEV,  
O'zMU tadqiqotchi

– Voy, asal qizim, kelding-mi? – oyisi Ra'noni shunday so'zlar bilan qarshi oldi.

Ra'no mamnun jilmaydi. U ichkarida zirakni taqib chiqib, oyisini qoyil qoldirmoqchi edi.

– Qizim, biroz shoshma, – dedi oyisiunga sirla ko'z qisib.

– Nima deysiz, oyijon? – Qani, ko'zlarining yumchi...

Ra'no ajablanib oyisining atyganini qildi.

– Ana, endi qarayver!

Ra'no ko'zlarini ochdi-yu, hang-u mang bo'lib qoldi. Oyisi jilmaygancha unga bir juft zirak uzatib turardi. Haligina o'zi do'kondan xarid qilgan ziragini xilidan!

– Bayraming muborak, qizim! Hamisha orzungaga yetib yurgin!

– Rahmat, oyijon, – deya shivirladi Ra'no...

Xijolatda yuzlari lov-lov yonarkan, negadir ko'z oldida do'konga chopqillab ketayotgan dugonasi jonlandi.

Robiya BO'RIXONZODA,  
Toshkent shahridagi  
31-maktab o'quvchisi

## NOMINGIZ O'CHMAGAY

Amir Temur bobojon,  
Sizni bilar keng jahon!  
«Kuch – bu adolatda», deb  
Xalqlarga bosgansiz yon!

Oson bo'limgan sizga,  
Sultanati boshqarish.  
O'zbek elini birlab,  
Qilgansiz ko'p ulug' ish.

Bizlar sizga vorismiz,  
Tarixga ham xolisimiz.  
«Temur tuzuklari»ni,  
O'qigan biz tolimbiz.

Qurban ko'p imorat,  
«Oq saroy-u, Ko'k saroy»...  
Ulardagi naqsh-nigor,  
Taratib turar chiroy.

Ne-ne sarkarda o'tgan,  
Bu dunyoni titratab...

Ammo sizdek zot yo'qdir,  
Davlatga bergan tarib.

Zamon oshib nomingiz,  
Zavol topmay kelyapti.  
Sizni bugun yosh avlod  
Ham – «bobomiz» deyapti!

«Sohibqiron» nomingiz,  
Tushmas o'zbek tilidan.

Yana ko'p asr yashang,  
Xalqimizning dilida.

Bahrom TOJIYEV

## SHAMOL VA GULLAR

Tabiat – bepoyon bog'.  
Har yon chaman, rang-barang.  
Mayin sabo kuyida,  
Gullar chayqalar, qarang.

Nogoh quyosh berkinib,  
Erka bulut to'kar yosh.  
Shamol qayrar qilichin,  
Gullar mahzun egar bosh.

Shamol gullarga deydi:  
– Tezda menga ber salom!  
Gullar aytar: – Rahm et,  
Yo'limizga qo'yma dom.

Sen bizlarga qalqon bo'l,  
Hamma ishga qodirsan!  
Biz-chi, nimjon gullarmiz,  
Sen kuchlisani, botirsan.

Shunda shamol uyalib,  
Yeladi tog'lar tomon.  
Quyosh ochib chehrasin,  
Dunyo bo'lar charog'on!

Risolat MAXSUMOVA,  
Toshkent viloyati, Parkent  
tumanidagi 29-maktab o'quvchisi



Har bir insonning hayotda o'z qiziqishlari bo'ladi. Maktab esa boladagi qiziqish va qobiliyatni tarbiyalashdek mulhim vazifani bajaradi.

Hamma qatori men ham maktabni yaxshi ko'rardim. Ayniqsa, adabiyot fani men uchun o'zgacha dars, olam-olam tasavvurlarning manbai edi. Adabiyot histuyg'ular, kechinma-yu ehtiroslar, xullas, inson qalbiga ta'sir etsa, matematika uning aksi, mantiq va o'ta anqliq konuniyatlariga asoslanadi. Xullas, adabiyotni sevardim. Matematika, geometriya fanlari esa...

Matematika o'qituvchimiz Abdurashid Tursunov og'ir, kamgap, intellektual tafakkurga ega kishi edi. U o'zgacha salobat bilan yurar, har bir so'zini churq muloha bilan dona-dona qilib so'zlardi.

Ochig'i, men fan uchun emas, ko'proq ustozning hurmati uchun darslarga kirardim...

O'qituvchimizning qora taxtaga ilonizi qilib yozayotgan turli raqamlari-yu belgilarini ko'rib, bu murakkab misollar



Do'kon gavjum edi. Ra'no har xil taqinchoqlar chiroyli terib qo'yilgan oynavand rastaga yaqinlashdi. Ana u! O'sha zirak! Jozibali tovlanib turibdi!

Qiz hayajondan qo'lidagi pulni mahkam g'ijimladi.

– Sizga nima kerak, singlim? – deb so'radi sotuvchi ayol.

– Men... – deb duduqlandi Ra'no, – anavi zirakni olmoqchi edim.

– O'h-ho', – deya gapga aralashdi yana bir sotuvchi

– Pulingiz yetadimi? Bu ancha qimmat turadi.

– Ha, mana, ko'pdan beri jamg'arib yuribman.

Ra'no chindan ham dadasi, tog'alari, ammalarini bayramlarda bergen pullarni hafslala bilan yig'ib yurardi.

Kechasenab ko'rsa, anchadan beri o'zi orzu qilib yurgan zirakni sotib olishga yetar ekan. Bugun darsdan chiqidiyu, do'konga oshiqdi.

– O'h-ho', – deya gapga aralashdi yana bir sotuvchi

amaki, – hozirgi yoshlar juda puxta, ota-onasidan yashirib, o'zlar pul yig'ishadi.

Sotuvchi ayol mammun bosh irg'adi.

– Yaxshi-da, yoshligidan mustaqil bo'lganga nima yesitsin!

Nihoyat, Ra'no zirak solingen qutini qo'lida avaylab tutganicha do'kondan chiqdi. U juda xursand edi!

Qo'lidagi qutini sumkasiga soldi-yu, xursand bo'lib uyiga jo'nadi. Shu payt qarshisidan sinfdoshi Nilufar chiqib qoldi.

– Ha, dugonajon, qayqqqa otlanding? – deb so'radi Ra'no.

– Ertaga bayram-ku! Shunga oyimga biror sovg'a olmoqchiman, – javob berdi Nilufar.

– Iye, – dedi Ra'no hayron bo'lib, – kattalarga ham sovg'a berishadimi?

– Albatta, nahotki bilmasang. Bo'pti, men ketdim, shoshilyapman...

Nilufar do'kon tomoniga yugurib ketdi. Ra'no ham o'z yo'lida davom etdi.

# JAHON CHEMPTIONATI YAKUNLANDI

Aytish mumkinki, Istiqlol yillarda mamlakatimizda sportning ommaviy turlarini rivojlantirish, shuningdek, farzandlarimizni sport bilan oshno tutinishinga ko'maklashish, ular orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qolaversa, bugun nafaqat viloyat va shahar markazlarida, balki chekka va olis qishloqlarda ham bir-biridan muhtasham va zamonaviy sport inshootlari qurilib, foydalanishga topshirilmadagi, bu mamlakatimizda nufuzli sport musobaqalarini o'tkazish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Quvonarlisi, bunday imkoniyat va shart-sharoitlar sabab yosolarimiz orasidan Osiyo, jahon championlari, Olimpiada ishtirokchilar yetishib chiqmoqda. Sport sohasida erishilayotgan bunday ulkan yutuqlarga o'smirlar va qizlar o'tasida og'ir atletika bo'yicha jahon championati doirasida mamlakatimizda mehnemon bo'lgan Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi prezidenti, Xalqaro olimpiya qo'mitasi a'zosi Tomash AYAN ham yuksak baho berdi:

- O'zbekistonga tashrifim davomida Prezident Islom Karimov bilan uchrashish sharafiga muyassar bo'lganimdan juda mammununman. Davlatingiz rahbarining O'zbekistonda sportni rivojlantirish strategiyasi, sportning inson hayoti, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy va ma'naviy sog'lom hamda erkin fikrlovchi insonlar etib

Jahon championati boshlanishidan avval, terma jamoamiz a'zosi Mashhurbek Yo'ldoshevga murabbiylar katta ishonch bildirishgan edi. Mashg'ulotlar jarayonida ham ustoz va shogird har bir jihatga jiddiy e'tibor qaratishdi. Yosh sportchimizning o'zi ham mashg'ulotlardan so'ng mustaqil ravishda tinimizsiz mashq qilib, jahon championatidagi muvafqaqiyatlari ishtirokiga mustahkam zamin hozirladi. Qarangki, uning mehnatlari zoye ketmadи. Ustozlari, otanasi, qolaversa, xalqimizning ishonchini oqlab, musobaqada uchta bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Mashhurbek vazni 50 kilogrammaga bo'lgan o'smirlar o'tasidagi bahslerda 30 nafardan ziyod yosh polvonlar bilan g'oliblik uchun bahs olib bordi. Tengdoshingiz shtangani dast ko'tarishda 86 kilogramm, siltab

tarbiyalashdagi o'mi va ahamiyat, yurtingizda bolalar sportini taraqqiy etirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganiga doir qimmatli fikrlari menda katta qiziqish uyg'otdi.

O'smirlar o'tasidagi jahon championatining Toshkent shahrida o'tkazilishi 2011-yili Parijda o'tkazilgan Xalqaro og'ir atletika federatsiyasining Kongressida e'lon qilingan edi. Aslida bunday nufuzli jahon championatlarini o'tkazishning o'ziga yarasha mezonlari bor.



Ya'ni, bu kabi yirik musobaqalar yetarli darajada shart-sharoitga ega, tinch va osuda mamlakatlarda o'tkaziladi. Quvonarlisi, talab etiladigan ushbu barcha jihatlar jonajon yurtimizda mavjud. Nafaqat poytaxtimizdagi, balki viloyatlardagi sport inshootlari ham xalqaro standartlarga to'la javob beradi. Og'ir atletikachilarimizning xalqaro arenalarda qo'lg'a kiritayotgan ulkan yutuqlari ham Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi ning ana shunday qarorga kelishiga sabab bo'ldi.


Poytaxtimiz mezonlik qilgan o'smirlar va qizlar o'tasida og'ir atletika bo'yicha jahon championati keskin va murosasiz tarzda o'tib, yakunda g'olib va sovindorlar aniqlandi. Quvonarlisi, ular orasida yosh va umidli og'ir atletikachilarimiz ham bor.

ko'tarishda 110 kilogramm, ikki kurash bo'yicha 196 kilogramm natijani qayd etib, uchta bronza medali sohibi bo'ldi.

- Terma jamoamiz zaxirasiga uchta bronza medallini tuhfa etganidan juda xursandman, - deydi umidli polvonimiz. - Bularning barchasi yurtimizda bolalar sportiga qaratilayotgan yuksak e'tiborning samarasidir.

Albatta, Siz aziz o'quvchilar ham ushbu nufuzli sport bayramini bevosita musobaqa o'tkazilgan «O'zbekiston» sport majmuasida yoki oymayi jahon orqali tomosha qilgandirisz. Shiddatkor bahslar, murosasiz bellashuvlar, tengdoshlaringizning ajoyib harakatlari Sizza ham havas ug'otganiga shubha yo'q. Agar shunday bo'lsa, sport hayotining aylansin, deymiz.

Sa'dullo TURSINOV



o'quvchisi Zuhra Nazarova sardorlik qilgan bizning qizlar jamoamiz g'oliblikni qo'dan bermay kelmoqda. Dugonamiz sportning bu turiga juda qiziqadi. Dastlab tumanimizda joylashgan deyarli barcha maktab-larning voleybol jamoalari ustidan g'alaba qozongan bo'lsak, kuni kecha shahar bosqichida 1-o'rinni egallab, oltin medalga sazovor bo'l-dik. Respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lg'a kiriganimidan ustozlarimiz Sayfiddin aka Saralidze va Jannar opa Bazarbayeva behad quvonishdi. Biz esa tinimizsiz mehnatlarimiz samarası – g'alaba nashidasi yana bir bor his qildik.

Laylo ZAYNIDDINOVA,  
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi  
226-maktabning 9-«G» sinif o'quvchisi

## BOLALARGA MUNOSIB SOVG'A

Yaqinda Farg'ona shahrining Qirguli mavzesida zamonaviy «Neftchi» sport majmuasi foydalanishga topshirildi.

Majmuuning ochilish marosimiga bag'ishlangan tadbirda viloyat hokimi Sh.G'aniyev so'z olib, Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida bolalar sportini rivojlantirish, ular o'tasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, yosholarning jismoniy tarbiya va sport bilan mutanzam shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotganini alohida ta'kidladi. Mazkur sport majmuasidagi yopiq va ochiq ko'rinishdagidan voleybol, basketbol, yengil atletika, mini futbol, badminton, stol tennisi, badiiy gimnastika, tennis maydonlari, suv havzalari xalqaro talablar asosida bunyod etilgan bo'lib, bu yerda mingga yaqin yosh sportchilar o'ndan ortiq sport turlari bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'lishdi. Tadbirda «Neftchi» madaniyat saroyi badiiy jamoalarining teatrlashtirilgan katta konsert dasturi minglab tomoshabinlarga shavq-u zavq ularshdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,  
Farg'ona viloyati

## G'ALABA NASHIDASI

Sevimli gazetam orqali tengdoshlarim bilan quvonchimni bo'lishmoq-chiman.

Ayni kunlarda maktab o'quvchilar o'tasida o'tayotgan sport musobaqalarida voleybol bo'yicha 9-«A» sinif

O'qing, qiziq!

# QALDIRG' OCH

Uzoq o'lkalardan kelgan qaldirk'och,  
Yurtimga bahorlar keltirganing rost.  
Mag'rur tog'lar, cheksiz ummonlar oshib,  
Biz tomon shoshilib yelganlaring rost.

Mittigina qushim, nafis qaldirk'och,  
Jasorating asli lochinlarga xos.  
Sadoqatda tanho, vafoda tengsiz,  
Chindan afsonaga aylanganing rost.



Ezgulik elchisi, inim qaldirk'och,  
Baland osmonlarda aylagin parvoz.  
Sog'inib kutamiz seni har bahor,  
Kel, qushim, ikkimiz aytishaylik roz.

Mitti ko'zlarinda mehring namoyon,  
Fayzli ayvonlarni aylaysan makon.  
Tong sahar ko'zlardan quygin g'aflatni,  
Chug'ur-chug'uringdan uyg'onsin imyon.

Ra'no ABDUMALIKOVA,  
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi  
41-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi

# BO'SH OTIRMAK. BOSH QOTIRI

## KI'MGA NIMA KERAK?

Qadrli o'quvchilar!

Turli kasb egalariga kerak bo'ladigan ish qurollarini to'g'ri  
jyllashtirsangiz, bo'g'inlar orqali mehnatga oid xalq  
maqollaridan birini o'qysiz.

|               |             |       |
|---------------|-------------|-------|
| 1. Duradgor   | ketmon      | asal  |
| 2. Uchuvchi   | qaychi      | qan-  |
| 3. O'qituvchi | mashina     | ga-   |
| 4. Oshpaz     | arxon       | ning. |
| 5. Tikuvchi   | tok qaychi  | ga-   |
| 6. Haydovchi  | kitob       | qi-   |
| 7. Temirchi   | igna-ip     | top-  |
| 8. Bichiqli   | kompas      | nat   |
| 9. Shifokor   | bosqon      | ning  |
| 10. Dehqon    | randa       | Meh-  |
| 11. Rassom    | fonendoskop | du    |
| 12. Bog'bon   | mo'yqalam   | tot-  |
| 13. Alpinist  | kapgir      | lib   |

1-2 3-4 5-6-7 8-9 10 11-12-13.

Dil OROM tayyorladi

8



Bosh muharrir  
Feruza JALILOVA



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy  
Kengash,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga  
qarashli bo'lmagan valoqaro xaxriya ja'mo' armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIRIR HAY'ATI:  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Quroqboy ERGASHEV,  
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi  
muharrir  
Sayyora  
QODIROVA  
Rassom  
Feruz  
MATYOQUBOV  
Dizayner  
Olovuddin  
ORIPOV  
Musahih  
Nargiza  
ABDULLAYEVA

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoysi ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMU'da chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushamba kuni  
chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 86049  
Buyurtma N: J 6890

Keling, extah o'qiyimiz!
BAHS

Shunda Havo  
bahsga yakun yasa-  
moqchi bo'libdi:  
- Inson va tabiat  
uchun eng zarur -  
o'zimman. Bir zum  
nafas olmasdan na  
odamlar, na tabiat  
yashay oladi. Demak,  
hayot uchun eng  
kerak unsur menman.

Bu bahsni eshitib turgan  
odamzod ularga vazminlik bilan  
shunday debdi:

- Uchovingiz ham bizga  
juda keraksizlar. Har birin-  
gizning o'z o'rnингiz bor. Biz  
barchangizni birdek qadrlaymiz,  
asrab-avaylaymiz!

Quyosh, Havo va Yomg'ir  
insonnинг bu gaplaridan to'g'ri  
xulosa chiqarib, faqat yaxshilik  
yo'lida xizmat qila bosh-  
lashibdi.

Oyshabonus RO'ZIBOYEVA,  
Andijon viloyati, Buloqboshi  
tumanidagi 5-umumta'l'm  
mabitabining 6-sinf o'quvchisi

D  
ichkina  
volffiya gulining  
diametri atigi 1 mm.ni  
tashkil qiladi. Ko'z  
oldingizga

keltirishingiz uchun  
shuni aytishimiz  
mumkinki, volffiya guli  
taxminan  
to'g'nog'ichning  
uchiday keladi;



N  
katta akula kitsimon  
akula bo'lib, uzunligi  
12-20 metrni, og'irligi  
esa 15-20 tonnani  
tashkil qiladi;

Y  
kichik  
akulaning  
uzunligi 40-45  
sm.ga teng;



D  
kichik qush  
nektarxo'r (kolibri)  
bo'lib, bu qush  
faqat gul nektari  
bilan oziqlanadi.  
Ishonsangiz, bu noyob  
qushning og'irligi bor  
yo'g'i 1,5 grammga  
tengdir;

A  
katta ilon anakonda  
bo'lib, uzunligi 11,4  
metrga yetadi.  
Amazonkada yashov-  
chi bu ilon 100 taga  
yaqin tuxum qo'yadi;

G  
tez o'sadigan o'simlik  
bamruk bo'lib, bir  
kecha kunduzda 90  
sm.gacha  
o'sadi.  
Uning  
balandligi 18  
metrgacha  
yetadi.

E  
Nigora  
JO'RAYERVA  
tayyorladi

N  
«O'zbekiston»  
NMU'da chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushamba kuni  
chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 86049  
Buyurtma N: J 6890

Dilfuza KAMOLJONOVA

15-aprel 2013